

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

60310100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta’lim yo‘nalishi

302-guruh talabalari uchun

ISHTURDIYEV HASAN ABDIGAPPAROVICHning

“Buxgalteriya hisobi ” fanidan

**“Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi” mavzusida
ochiq amaliy darsining ishlanmasi**

Tuzuvchi:

H.Ishturdiyev – “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

M.Mardonov – TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” mudiri dotsenti, i.f.n.

A.Aliqulov – “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori

Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma**boshlig‘i, professor v.v.b.****R.F.Ro‘ziqulov**

**“Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi” mavzusidagi
amaliy mashg`ulot o‘qitish texnologiyasi**

Vaqti-4 soat.	Talabalar soni: 21-nafar.
O`quv mashg`ulotining shakli	Binar amaliy munozara.
Amaliy mashg`uloti rejasি	<ol style="list-style-type: none"> 1. Pul mablag`lari va pul ekvivalentlari 2. Pul oqimlari bo'yicha faoliyatlar 3. Operatsion faoliyatdan pul oqilari bo'yicha hisobot 4. Investetsiya va moliya faoliyatidan tushgan pul oqimlari bo'yicha hisobot
<p><i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Darsni o‘zlashtirish davomida talabalarda pul mablag`lari harakati to‘g‘risidagi hisobot sub'ektning operatsion, investetsiya va moliyaviy faoliyatining o‘z pul mablag`lariga ma'lum hisobot davri ichida tasirini aks ettirilishi, shu davr ichida pul mablag`larining o‘zgarishi bo'yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.</p>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; - o‘z fikrini ilgari surish asoslash, muzokara qilish ko`nikmalarinirivojlantirish; - muammoli vazifalarni yechishni faollashtirishni rag`batlantirish; - muammoli vazifalarni yechishda eng yaxshi yechimlarni tanlash va baholash ko`nikmalarini hosil qilish; - kommuniktsiya, guruhda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - korxonaning pul mablag`larini va ularning ekvivalentlarini ishlab topish qobiliyatini va tashkilotning shu kabi pul oqimlarini ishlatishga extiyojini aniqlash; - tashkilotning sof aktivlaridagi o‘zgarishlar, uning moliyaviy tuzilishini (uning likvidligini va to‘lov qobiliyati bilan birga) va uning o‘zgarib turgan sharoit va imkoniyatlarga moslashish uchun o‘z vaqtida pul miqdoriga va pul oqimlariga ta'sir etish qobiliyatini aniqlash; - har xil tashkilotlarning operatsion faoliyatlarini taqqoslash, chunki bu ayni operatsion va xo‘jalik faoliyatining hodisalari uchun har xil hisoblash usullarini qo‘llanishni inkor etadi
O`qitish usullari va texnikasi	Munozara, muammoli usul. To`g`ridan-to`g`ri jamoaviy aqliy hujum, BBB jadvali
O`qitish vositalari	O`quv qo‘llanmalar, o`quv daftarlari, A4 kattaligidagi qog`oz, marker, skotch.
O`qitish shakllari	Frontal, guruh va jamoada ishlash.
O`qitish sharoitilari	Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

**“Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi” mavzusidagi
amaliy mashg`ulotining texnologik kartasi**

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni o`qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	<p>O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. O`qitish guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida olshib borilishini e`lon qiladi.</p> <p>Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so`rov o`tkazadi.</p> <p>Talabaden javobni eshitadi va mavzu muhokamasi guruhlarga ishlar taqdimotidan so`ng davom etishini e`lon qiladi.</p> <p>Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova).</p> <p>Guruhlarda ishlash natijasi plakat qog`ozlarda ko`rsatilishi kerakligini ma`lum qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yoziboladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar</p>
2-bosqich. Asosiy (20 min.)	<p>2.1. Talabalarни 3 guruhga ajratadi. O`quv topshiriqlarini tarqatadi (4-ilova).</p> <p>Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e`lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma`ruza matnlari va boshqa qo`llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. O`quv natijalarini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ishlarni boshlashni e`lon qiladi.</p>	<p>2.1. O`quv topshiriqlarini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Vazifani bajaradilar</p>
3-bosqich. Taqdimot (45 min.)	<p>Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o`zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e`tiborni qaratadi.</p> <p>Munozara uchun savollar beradi (5-ilova).</p>	<p>3.1. Taqdimot qilishadi, qo`shimchalar qilishadi, baholashadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	<p>Mashg`ulotga yakun yasaydi, faol ishtirok-chilarni rag`batlantiradi. Kelajakda amaliyot va o`quv faoliyatidagi ahamiyatini ta`kidlaydi.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

1- ilova.**Amaliy mashg‘ulotda ishlash tartibi va reglamenti**

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani tayyorlash – 20 min.
2. Ish natijalarini prezentatsiya orqali namoyish qilish – 5 min.
3. Jamoa bo`lib ishlash va guruhlarni baholash – 5 min.

2- ilova.**Guruh bilan ishlash qoidalari**

Har biri o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlarilozim;

Har biri o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari

mumkin; Har biri yordam so`raganlarga ko`mak berishlari lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini yaxshibilishlari lozim.

3- ilova.**Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball)**

Guruh	Yondoshuvning (to`liqligi, to`g`riliqi)	Grafikda to`g`ri tasvirlash	Guruh faolligi	Muammo nifaol yechilishi	Ballar yig`indisi
	(1,0)	(0,6)	(0,4)	(1,0)	(3,0)
1					
2					
3					

4- ilova.**B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materialllar**

	Tushuncha	Bilaman	Bilib olidim	Bilishni hohlayman
1	Pul mablag'lari va pul ekvivalentlariga nimalar kiradi			
2	Hisob-kitob schyotidan ko'chirilgan pul mablag'lar qanday nazorat qilinadi			
3	Operatsion faoliyat qanday faoliyat			
4	Hisob-kitob schyotidan ko'chirilgan pul mablag_lar qanday nazorat qilinadi			
5	Bankda valyuta schyotini ochish uchun qanday hujjatlar topshiriladi			
6	Pul mablag_lari va hisob-kitoblar hisobining asosiy vazifalari			

	nimalardan iborat			
7	Kassaga pul mablag'larining kirimi va ularning chiqimi qanday hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi			

O`quv topshiriqlar

1 – guruh

Operatsion faoliyat. Operatsion faoliyatidan pul oqimlarining hajmi korxonaning ssudalarni to‘lash uchun yetarli pul mablag‘larini yig‘ish, ishlab chiqarish darajasini saqlash, dividendlarni to‘lash va tashqi moliyalashtirish manbaalarni jalg qilmay yangi kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni bajarishga qobiliyati mavjudligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Operatsion faoliyat jarayonida sodir bo‘lgan pul mablag‘larining harakatlariga misol bo‘lib, quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

1-topshiriq Operatsion faoliyat jarayonida sodir bo‘lgan pul mablag‘larining harakatlariga misol keltiring

Pul mablag‘larining oqib kelishi	Pul mablag‘larining oqib ketishi
Royaltildan (patent, avtorlik huquqidan foydalanganlik uchun to‘lovlar va boshq.), turli tavsifdagi taqdirlashlar, foiz daromadidan, komission yig‘imlardan va boshqa daromadlardan	Korxona xodimlariga pullik to‘lovlar, operatsion xarajatlar

Operatsion faoliyatidan pul oqimlari birinchi navbatda, asosiy faoliyatdan daromad olishning natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Talab qilinadi:

2-topshiriq Ushbu xo’jalik operatsiyalarini buxgalteriya provodkalari tuzing

№	Xo’jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog’lanishi	
		Debet	Kredit
1	Ijaraga berilgan asosiy vositalar bo‘yicha ijarachidan ijara to‘lovlarining kelib tushishi		
2	Tovarlarni kreditga sotishdan tushgan pullar		
3	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishidan tushgan tushumlar		
4	Pul mablag‘lari kassadan hisob-kitob		

	schytoga topshirildi		
5	CHet el valyutasini sotib olish uchun pul mablag_lari o'tkazildi		
6	Bankka qaytarilgan chek va akkreditivlar bo'yicha summalar hisob-kitob schytoga o'tkazildi		
7	Ilgari qisqa muddatli investitsiya tartibida berilgan qarzlarning qaytarilishi		
8	Ilgari berilgan bo'nak qaytarildi		
9	Qondirilgan da'volar summasining kelib tushishi		
10	Olingan bo'naklar summasi		
11	Ilgari aksiyaga obuna bo'lган ta'sischilardan ulush summasining kelib tushishi		
12	Nominal qiymatdan yuqori bahoda sotilgan aksiyalardan emission daromadning kelib tushishi		
13	Bankdan kassaga pul mablag'lari kelib tushdi (mehnat haqi, nafaqa, mukofot va shu kabilarni berish uchun)		
14	Xususiy aksiyalarning sotib olinishi		
15	Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlarning qoplanishi		

3-topshiriq

"MADAD INVEST" MCHJ 31.12.2023 yildagi(28.11.2023 dan 30.11.2023 gacha bo'lган davr uchun) quyidagi pul hisob-kitob hujjatlari ilova qilinga holda shaxsiy hisobvarag'idan kuchirma bilan qabul qildi.

mareriallar yetkazib beruvchiga to'lov uchun 2023-yil 28-noyabrdagi 21-son to'lov topshiriqnomasi -2456000 so'm va qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) 368400

-soliq va majburiy ajratmalarga byudjet qarzini qoplash uchun 2023-yil 28-noyabrdagi 22-sonli to'lov topshiriqnomasi -4333000 so'm

-bankning 845-sonli memorial orderi asosida 2023-yil 28-noyabr material yetkazib beruvchiga pul mablag'lari utkazish buyicha bank xizmatlari uchun xaq to'lash-50120 so'm

-bankdan naxt pul olish uchun 2023-yil 30-noyabrdagi 38-son kassa kirim orderi kvetansiyasiga asoson 7800000 so'm

- bankning 965-sonli memorial orderi asosida 2023-yil 30-noyabr naxt pul to'lagani uchun bank xizmatlariga commission xaq -141600 so'm

-2023-yil 01.11 dagi 214-sonli shartnomaga asosan sotilgan maxsulot uchun 2023-yil 30.11 dagi 221-sonli xoridorning to'lob topshiriqnomasi bo'yicha pul tushumi-9428000 so'm va QQS 1414200 so'm

Ushbu xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya provodkalarida aks ettiring

2 – guruh

Investitsiya faoliyati – pul ekvivalentlariga kiritilmaydigan uzoq muddatli aktivlarni va boshqa investitsiyalarni olish va sotish, qoplanadigan kreditlarni berish va olish. Investitsiya faoliyati natijasida, sodir bo‘ladigan pul mablag‘larining harakatlariga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin:

1-topshiriq Investitsiya f

Pul mablag‘larining oqib kelishi	Pul mablag‘larining oqib ketishi
Boshqa korxonalarga berilgan bo‘naklarning qaytarilishi va qarzlarining to‘lanishidan kirimlar (operatsion faoliyat bo‘lgan foiz daromadlaridan tashqari)	Boshqa korxonalarga berilgan bo‘nak to‘lovleri va qarzlar

2-topshiriq Quyidagi xo’jalik operatsiyalarini buxgalteriya provodkalari tuzing

№	Xo’jalik muomalalarining mazmuni	Schytotlarning bog’lanishi	
		Debet	Kredit
1	Kassadan valyuta mablag_larinining valyuta schyotiga topshirilishi		
2	Ishlatilmagan chek va akkreditiv summasining valyuta schyotiga o’tkazilishi		
3	Ilgari qisqa muddatli investitsiyalar tartibida berilgan qarzning qaytarilishi		
4	Ilgari berilgan bo‘naklarning qaytarilishi		
5	Qondirilgan da‘volar summasining kelib tushishi		
6	Ilgari aksiyalarga obuna bo‘lgan ta‘sischilardan ulush summasining kelib tushishi		
7	Nominal qiymatdan yuqori bahoda sotilgan aksiyalardan emission daromadning kelib tushishi		
8	Investitsiyaga mablag‘larning qo’yilishi		
9	Bankdan kassaga valyuta mablag‘larining kelib tushishi		
10	Xususiy aksiyalarning sotib olinishi		
11	Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlarining to‘lanishi		
12	Berilgan bo‘naklarning summasi		
13	Ilgari olingan bo‘naklarning qaytarilishi		
14	Ta‘sischilarga hisoblangan dividendning		

	to'lanishi		
15	Hisoblangan foizlar bo'yicha qarzlar qoplandi		

3-topshiriq

Xorijiy valyutani sotilishi buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi

- a)valyuta schyotidan xorijiy valyutani Markaziy bank kursi bo'yicha o'tkazilishi:
- b)Markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutani «Blokschyon» dan chiqarilishi
- d)valyuta bozorida kelishilgan kurs bo'yicha sotilgan xorijiyy valyutaning so'm ekvivalentini hisob-kitob schyotiga o'tkazilishi:
- e)Xorijiy valyutani sotishda hosil bo'lgan ijobjiy kurs farqini Markaziy bank kursidan ortig'ini aks ettirilishi:
- c)Xorijiy valyutani sotishda hosil bo_ lgan salbiy kurs farqini (Markaziy bank kursidan kam) aks ettirilishi

TEST SAVOLLARI

1. Akreditivning qanday turlari mavjud?

- A. Qoplangan va qoplanmagan
- B. Qaytarib olinadigan
- C. Qoplanmagan
- D. Qoplangan

2. Kassa daftariga yozuvlar kopirovka qog'ozi orqali sharikli ruchkada nechi nusxada yoziladi?

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5

3. Kassa inventarizatsiyasi bir oyda necha marotaba o'tkaziladi?

- A. 2
- B. 3
- C. 1
- D. 4

4. Kassa muomalalarini amalgam oshirish uchun qanday hujjatlar tuziladi?

- A. "Kirim va chiqim orderlarini qayd qilishjurnali" va "kassa kitobi"
- B. "Kassa kirim orderi", "kassa chiqim orderi", "kirim va chiqim orderlarini qayd qilishjurnali" va "kassa kitobi"
- C. "Kassa kirim orderi", "kassa chiqim orderi"
- D. "Kassa kirim orderi", "kassa chiqim orderi", "kassa kitobi"

5. Kassada tarqatilmagan pul mablag'lari deponentga o'tkazilganda schyotlarda qanday aks etadi?

- A.** Debet 5110 Kredit 5010
 - B.** Debet 6710 Kredit 9010
 - C.** Debet 6710 Kredit 6720
 - D.** Debet 9010 Kredit 6710
6. Kassadan ishchilarga oylik to'lab berildi. Ushbu muomulaga provodka bering
- A.** Debet 5010 Kredit 6710
 - B.** Debet 6710 Kredit 5110
 - C.** Debet 5110 Kredit 6710
 - D.** Debet 6710 Kredit 5010
7. Kassa schyotining krediti bo'yicha aylanma qaysi hisob registrida yuritiladi?
- A.** 1-jurnal order
 - B.** 2-jurnal order
 - C.** 1-jurnal order
 - D.** 4-jurnal order
8. Kassaga hisob raqamdan naqd pul olinib kelinganda schyotlarda qanday aks etadi?
- A.** Kredit 6710 Debet 5010
 - B.** Debet 5010 Kredit 5110
 - C.** Debet 5010 Kredit 6010
 - D.** Debet 5010 Kredit 2010
9. Kassaga naqd pulni qaysi hujjat asosida chiqim qiladi?
- A.** KO-3
 - B.** KO-2
 - C.** KO-1
 - D.** KO-4
10. Kassaga naqd pulni qaysi hujjat asosida qabul qiladi?
- A.** KO-3
 - B.** KO-2
 - C.** KO-1
 - D.** KO-4